



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

BROYLER JO'JALARINI SAQLASH VA PARVARISHLASH

Mamatov X.A., Abdiraxmanova B.J., Turgangaliyeva G. K.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 noyabrdagi PQ-4015-sonli "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida keltirilganidek mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga ilg'or texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, ularning turlari va eksport ko'lamini kengaytirish, raqobatbardosh parranda mahsulotlari ishlab chiqarish orqali aholini yetarli miqdorda parranda mahsulotlari bilan barqaror va maqbul narxlarda ta'minlashdir.

Istiqbolli tovuqlarning "Ross-308" va "Kobb 500" krosslarini saqlashda va parvarishlashda zoogigienik me'yorlarini yaratib berish muhim omillardan biridir. Mahalliy ozuqalardan foydalanib omixta yem retseptlari tayyorlash va broyler jo'jalarini davrlar bo'yicha oziqlantirib kunlik, haftalik o'sishini nazorat qilish, 1 kg qo'shimcha tirik vaznga omixta yem sarfi va bo'rdoqilash muddatlariga e'tibor berish zarur. Broyler jo'jalarini saqlashdan oldin bino ichini 3,5-5 % li xloramin, 1,2-2 % xlor eritmasi bilan zararsizlantirish, to'shama sifatida 6-8 sm qalinlikda somon, poxol, yog'och qirindisi, maydalangan makkajo'xori poyasidan foydalanib, 1 m² yerda 8 boshdan saqlash maqsadga muvofiq. Tajribadagi broyler jo'jalarini 100 boshdan 2 guruhga ajratilib, qalin to'shamali to'siqli xonaga joylashtirildi. Broyler jo'jalarini o'stirishni 7 kunida La-Sato preparati bilan emlandi. Zoogigienik me'yorlarini mahsus o'lchagich asbob-uskunalar ko'rsatkichlari orqali me'yorlashtirib borish yo'li bilan o'rganildi va har ikkala guruhdagi broyler jo'jalarini o'stirishda, bo'rdoqilash va oziqlantirishda uslubimizda ko'rsatilgan bo'yicha barcha shart-sharoitlar yaratildi. Go'shtdor parandalar galasini yaratish, nasldor tuxumlar olish, inkubatsiyalash, sifatli jo'jalar yetkazish, o'stirish va parranda go'shti yetishtirishda nazariy asoslarga va ishlab chiqarish amaliyotlariga va yangi texnologiyalarni joriy qilish alohida kasb etadi. Broyler jo'jalarni bino ichida saqlashda su'niy ravishda barcha shart sharoitlar ilmiy asosda yaratilsa, bu esa parranda go'shti ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshishi bilan bir qatorda ishlab chiqarilayotgan parranda go'shtini tannarxini pasayishiga olib keladi. Ayniqsa kerakli me'yorda mo'tadil issiqlik haroratini, nisbiy namlik, yorug'lik, bino ichida havo harakati kabi mikroiklimlar yaratilsa, ta'minlanib borilsa u holda yil davomida bir tekisda me'yorda mahsulot olishga erishish mumkin.

Broyler jo'jalarini o'stirish bir xil yoshdagi katta guruhlarda xonalarning yer yuzasi almashtirilmaydigan qalin to'shamalar va batareyali kataklar bilan jixozlangan xonalarda amalga oshiriladi. Kataklarda broyler jo'jalarni o'stirishda ishlab chiqarish xonalarini samarali ishlatilishi ta'minlanadi. Kataklarda o'stirilganda xonaning 1 kv m yuzasi hisobiga yetishtirilgan broyler jo'jalar go'shti miqdori ularni yerda o'stirgandagiga nisbatan ko'proqdir. Xonalarning 1 kv m yuzasi hisobiga broyler go'shti yetishtirish miqdorini aniqlash uchun jami ishlab chiqarilgan broyler go'shtining miqdorini o'stirish sexidagi xonalarning ishlab chiqarish yuzasiga bo'lish kerak. Bir yilda jami ishlab chiqarilgan broyler jo'jalari go'shtining miqdori ularning so'yishdan oldingi o'rtacha tirik vaznini bosh soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Bir yilda o'stirilgan broyler jo'jalari bosh sonining miqdori shu parrandachilik korxonasining ishlab chiqarish quvvati hisoblanadi.

Broyler go'shti yetkazishda, broyler jo'jalarini yerda qalin to'shamalarda saqlashda bino ichidagi va chiroq ostida issiqlik haroratini me'yorda saqlash muhimdir. Ilmiy nuqtayi nazardan broyler jo'jalarini qalin to'shamalarda saqlashda bino ichida havo-issiqlik harorati 24-26⁰C, chiroq ostida esa saqlashning birinchi haftasiga 32-30⁰C bo'lsa, keyingi saqlash davrlarda yoshi e'tiboran haftasiga +2⁰C kamaytirib boriladi. Nisbiy namlik o'stirishning birinchi davrida, ya'ni boshlang'ich (startoviy) davrida 50-60 %, o'stirish va bo'rdoqilash davrida 60-70 % bo'lishi maqsadga muvofiq. Yorug'lik esa o'stirishning boshlang'ich davrida 30-25 lyuks, keyingi davrlarda 25-20 lyuksda. Bu esa yosh broyler jo'jalarini o'stirishni boshlang'ich davrida nafaqat turar joyida issiqlik haroratini me'yorlashtirishda qolaversa, jo'jalarini yaxshi oziqlantirishda va me'yoridagi omixta yemni yeyishni ta'minlaydi.

Go'shtdor parrandalar har xil ta'surotlarga beriluvchan bo'lib, ularda reflekslarni hosil qilish muhimdir. Bu esa ish jarayonini tartibga saqlash, o'z vaqtida ishlarni bajarish, oziqa berish, ohurlarini tozalash, dam olish kabi ishlar belgilangan grafikda amalga oshirilishi kerak. Parranda go'shti ishlab chiqarishning tez o'sishida asosiy sabab mahsulotga bo'lgan talabning barcha mamlakatlarda o'sishidir. Parranda go'shtining 1 kg qoramol go'shtiga nisbatan 3-3,5 marta va cho'chqa go'shtiga nisbatan 2 marta arzon bo'lishi bilan barcha parranda go'shti o'zining parhezligi va go'shtining tarkibida yog'ning kam bo'lishi, hamda kam miqdorda xolesteringa ega ekanligi bilan bog'liqdir.

Go'shtbop parrandachilikning asosini broylerlar tashkil qilib, dunyo mamlakatlarida ishlab chiqariladigan barcha parranda go'shtlarining 75% ni tashkil qiladi. Go'shtbop parrandalar galasini yaratish, nasldor tuxumlar olish, inkubatsiyalash, sifatli jo'jalar yetkazish, o'stirish va bo'rdoqilashda ilmiy-fan yutuqlari, ilg'or ish tajribalari, texnologiyalarga amal qilish zarur. Broiler jo'jalarini bino ichida saqlashda, saqlash usullariga qat'iyan rioya qilish, barcha shart-sharoitlarni sun'iy yaratish bu esa go'shtbop jo'jalarini me'yorda o'sish, rivojlanishi, parranda go'shti ishlab chiqarishda ish unumdorligini oshirish va mahsulot tan-narxini pasaytirishga olib keladi. Broiler jo'jalarini saqlash va asrash jarayonida har xil ta'surotlardan holi qilish, ularni ma'lum shartli reflekslar hosil qilish muhimdir. Parrandalar har xil ta'surotlarga beriluvchan bo'lib, bu ayniqsa, yosh jo'jalarda tez ayon bo'ladi va ma'lum vaqtgacha o'ziga kela olmay doimo qo'rqinch holda bo'ladi. Bu esa ish jarayonida, ya'ni ish tartiblarining buzilishi, belgilangan vaqtda oziqlantirmaslik, ozuqa berish, ohurlarni tozalash, mexanizmlarning ishlashi, profilaktik ishlarni o'tkazish kabilardir.

Xulosa. Broiler go'shti yetishtirish sexining asosiy vazifasi istiqbolli kross liniyalariga mansub bo'lgan yosh jo'jalarini qisqa muddatlar ichida yuqori tirik vaznga yetkazish va ozuqa sarfini kamaytirilgan holda sifatli arzon parranda go'shti ishlab chiqarishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 4015-sonli qarori. Toshkent 2018 yil 13-noyabr
3. Кузнецов А.Ф. - Книга «Промышленное птицеводство». Издательство: КВАДРО. Санкт-Петербург 2017 год
4. Романов В.Г. - «Некоторые экологические особенности инкубации куриных яиц» Киев. Украина 2020. книга
5. X.Mamatov. - "Parrandachilik fermer, dehqon va yordamchi xo'jaliklarida tuxum va parranda go'shti ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'llanma. Samarqand 2012.

6. Рахимов, М. А., Турдалиев, А. Т., & Мадрахимов, Ш. Н. (2022). ПРОИЗВОДСТВО ПОЛНОЦЕННОГО МЯСА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРОДНЫХ РЕСУРСОВ. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНОГО И НЕПРОДУКТИВНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА* (pp. 184-189).
7. Жавхаров, О. З., Мадрахимов, Ш. Н., & Собиров, И. А. (2024). СОСТОЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЕВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (2), 282-287.
8. Базарон, Б. З., Шкуратова, Г. М., & Дашинимаев, С. М. (2018). Биохимические показатели крови лошадей забайкальской породы. *Ветеринария*, (7), 53-56.
9. Мадрахимов, Ш. Н., & Худайберганаева, Х. (2024). Характеристики покрытия кормов живой массой быков породы монбельярд разных генотипов. In *Актуальные проблемы, перспективные планы и инновационные решения в селекции, семеноводстве и агротехнологиях сельскохозяйственных культур: материалы Международной научно-практической конференции, 26 сентября 2024 г* (p. 388).
10. Мадрахимов, Ш. Н., Мамадов, Ф. К., & Гулбутаев, Б. Х. (2024). Турли селекцияга мансуб голштин зотли сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. *Science and innovation*, 3(Special Issue 40), 255-257.
11. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асослари. *Автореферат. Қишлоқ ҳўжалиги фанлари доктори*, 72.
12. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
13. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, (22), 1.
14. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

PARRANDALARNING TUXUM MAHSULDORLIGI, TUXUM SIFATINI BAHOLASH.

Mamatov X.A., Usmonova J.S., Hasanbayev T.I.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 noyabrdagi PQ-4015-sonli "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida keltirilganidek mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Parrandalarning tuxum mahsuldorligi ularning turi, zoti, mahsuldorligining yo'nalishi, nasli, ular asralayotgan mikroiklim sharoitlari, oziqlantirish darajasi va jinsiy etilishiga bog'liq bo'lib, tana tuzilishi tanasining tegishli qismlarini o'lchash, tojining hamda isirg'asining rangi, holati va kattaligi,